

**EKOLOGIK TA'LIM TARBIYANI OLIB BORILISHI: SINGAPUR TAJRIBASI**

Asqarova M.R.

Tabiiy Fanlar Fakulteti O'Qituvchisi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

askarovamiribon@gmail.com

Gafurjonova X.

Tabiiy Fanlar Fakulteti Talabasi (19/1 Biologiya)

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

**Annotasiya**

Fan-texnika taraqqiyoti jadallahsgan sari insonning atrof muhitga bo'lgan munosabatlari ham faollashib, u tabiat boyliklaridan ko'proq olishi va ularni insoniyat ehtiyojiga surf qilishi kuchaygan sari, ming yillar davomida barqaror bo'lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson va tabiat o'rtaсидagi munosabat murakkablashib, tabiiy muhit falokat yoqasiga kelib qoldi. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Ekoliya - tirik organizimlarning o'zaro va ular yashaydigan tabiiy muhit bilan bo'lgan munosabatlarini, ularning ta'sirini va yashash shart-sharoitlarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** ekoliya, mamlakat, ekoshahar, kimyoviy moddalar, chiqindilar, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, atmosfera havosi.

**ENVIRONMENTAL EDUCATION IN EDUCATION: THE SINGAPORE EXPERIENCE**

Askarova M.R.

Teacher of the Faculty of Natural Sciences

Chirchik State Pedagogical University

askarovamiribon@gmail.com

Gafurjonova Kh.

Student of the Faculty of Natural Sciences (19/1 Biology)

Chirchik State Pedagogical University

**Abstract**

As scientific and technical progress accelerates, the relations of man to the environment become more active, and as he takes more of the natural resources and uses them for the needs of mankind, the ecological balance, which has been stable for thousands of years, is disturbed, and the relationship between man and nature the relationship became complicated, and the natural environment came to the brink of disaster. Due to human overuse of natural resources, the face of our planet is changing. Ecology - studies the relations of living organisms with each other and with the natural environment in which they live, their effects and living conditions.

**Keywords:** ecology, country, eco-city, chemicals, waste, ecological culture, ecological education, atmospheric air.

Singapur - ko'p millatli shahar-davlat, global moliyaviy markazdir. U orolda joylashgan va Malayziyaning janubiy qismi bilan chegaradosh. 63ta kata - kichik orollardan iborat ushbu mo'jizakor mamlakat haqida ko'p va xo'p eshitgansiz albatta. Lekin bugun biz ushbu mamlakatning dunyodagi yetakchi o'rnlarda turuvchi iqtisodiyoti, sog'liqni saqlash tizimi va yoki betakror shaharlari haqida emas balki ekologiyasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Savol tug'iladi, nega aynan Singapur? Bundan bir necha yillar oldin men Rossiya televideniyasi orqali namoyish etilgan "Oryoil i Reshka" deb nomlangan ko'rsatuv orqali bu mamlakat haqida oz bo'lsada ma'lumotlarga ega bo'lganman. Bu mamlakatga sayyoh bo'lib kelgan yigit va qiz ushbu mamlakatning barcha diqqatga sazovor yutuqlari haqida ko'rsatuv tayyorlashadi.

Ushbu ko'rsatuvni ko'rар ekanman mening diqqatim ikki narsaga to'xtaldi: birinchisi ko'chalarining, xiyobonlarning umuman shaharning chinniday tozaligi bo'lsa ikkinchisi odamlarning ekologik madaniyati. Shaharning bunaqa tozaligiga sabab hamma joyda kameralar joylanganligi, har bir tashlangan axlat turiga qarab turli narxlar belgilangan ekan.

### **Singapurda Ekologiyaga E'tibor Haqida**

Singapurda quyidagilar taqiqlangan:

1. Mamlakatda jadval bo'yicha - kechqurun soat o'ndan "chiroqlar o'chiriladi"
2. Yerga tupurish va axlat tashlash.
3. Kabutarlar va boshqa hayvonlarni boqish ...
4. Saqich chaynash va hakozo, ushbu taqiqlarni buzish katta miqdordagi jarimalarga sabab bolar ekan.

Singapur hukumati Tengah ekoshaharini qurishni rejalashtirmoqda, unda 42 ming uy, yer osti yo'llari, vakuumli chiqindilarni yig'ish va konditsionerlar mavjud. Ushbu ekoshahar yonmaydigan chiqindilarni to'liq qayta ishlash mahsulotlaridan foydalanib barpo etilmoqda. Birinchi kvartiralar 2023 yilda foydalanishga topshiriladi.

Mamlakatda ta'limga e'tibor yuksak darajada. Singapurda dunyodagi eng yaxshilaridan biri bo'lgan xalq ta'limi tizimi mavjud. Ko'p millatli davlatni mustahkamlash va global dunyoga tezda qo'shilish uchun ingliz tili asosiy o'quv tili sifatida qabul qilingan. Mamlakatda 6 ta mahalliy universitet, jumladan, Singapur davlat milliy universiteti mavjud. Singapur davlati har yili umumiy daromadining 20 foizini oliy ta'limga sarflaydi O'qishni tugatgandan so'ng a'lochi talabalarga barcha o'quv to'lovlari qaytariladi. Oliy ma'lumotli ayollarga uylangan erkaklarga bonus beriladi.

Davlatimiz tomonidan ekologik muammolarni hal etish va yechim topish maqsadida qator- qator farmonlar chiqarilishiga qaramasdan ekologik madaniyat tushunchasi hali-hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Amerikaning Bleksmil ilmiy tadqiqot instituti xodimlari tomonidan yaqinda o'tkazilgan tadqiqot natijalari Buyuk Britaniyaning "The Deily Telegraph" gazetasida chop etildi. Shaharlarning havosining tozalilik darajasi, tuproqning kimyoviy moddalar changi va suyuqliklari bilan ifloslanishiga qarab o'rirlari belgilangan.

1-o'rinni: Xitoy, Lifen shahri;

2- o'rinni: Xitoy, Tyanjin shahri;

3- o'rinni: Hindiston, Sukinda shahri;

4- o'rinni: Hindiston, Vapi shahri.

5- o'rinni: Peru, La Orayya shahri;

6- o'rinni: Rossiya, Dzerjinsk shahri;

7- o'rinni: Rossiya, Norilsk shahri;

8- o'rinni: Ukraina, Chernobil shahri va hakozo...

Kuni kecha internet tarmoqlarida atmosfera havosi ifloslanish darajasi ko'rsatkichlari boyicha shaharlar reytingi e'lon qilingan ma'lumot berigan. Ushbu ma'lumotga ko'ra Toshkent shahri 6-o'rinda turibdi.

Shaharlar havosining bunday ko'rsatkichlari odamlar salomatligiga ta'sir qilmasdan qolmaydi albatta. Jamiyatimizda barchamiz Vatanimiz tabiatini toza saqlash va asrash uchun bab-baravar masul ekanmiz, kelajakda bunday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun harakat qilishimiz zarur. Xosh qanday chora –tadbirlar bizni Singapurday davlatlar qatoriga qo'shilishimizga yordam beradi?

Mening fikrimcha faqat yoshlarning va aholining ekologik madaniyatini o'stirish,chiqindisiz texnologiyalar sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribalarini yurtimizga olib kirish, "Yashil makon" dasturlarini kengaytirish kabi faoliyatlarni olib borishimiz orqali natijalarga erishishimiz mumkin.

## **EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH**

Ekologik madaniyat – bu bizning atrof–muhitga nisbatan faoliyatimizning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvimizdir. Ekologik madaniyatni sakllantirishni avvalo oiladan boshlash zarur.

Ekologik tarbiyani shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar,litseylar va oliygochlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Oilada kamol topayotgan har bir farzand avvalo Ota-Onasidan birinchi tarbiyani oladi.Shuning uchun Ota-Onaning o'zi tarbiyalangan, vatanparvar bo'lisi zarur.

Bog'cha va maktabdagagi ekologiyaga oid darslar,mashg'ulotlar va kechalar ham bolaning atrof muhitga, tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatining shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi va kelajakda qanday kasb egasi bo'lishidan qatiy nazar ekologik madaniyati shakllangan insonga aylanishida zamin yarata oladi.

Boshqa mamlakatlar singari bizning oliy ta'lim muassalarining tabiiy fanlar yo'nalishlarida ham ekologiya fani o'qitiladi. Yaqinda ushbu talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qildim:

1-savol:Siz o'zingizni ekologik madaniyatli insonman deb hisoblaysizmi?

2-savol: Chiroyli kiyinib, o'qishga ketayapsiz deylik. Yo'lingizda supurilgan ko'chada, axlat qutisi yonida sellofanda axlat sochilib yotibdi. Axlatni qutiga olib tashlaysizmi?

3-savol: Oddiy bir talaba sifatida siz ekoliyani yaxshilashga qanday hissa qo'shishingiz mumkin?

4-savol: Hozirgi kunda OAVda ekoliyaga oid qanday muammolar ko'tarilayotganiga qiziqqanmisiz?

5-savol: Global iqlim isishi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

Javoblar:

1-savolga talabalarning 21tasi (67,7%) ha, 6tasi (19,3%)yo'q, 4tasi (13%) javob bermagan.


2-savolga talabalarning 4tasi (13%) ha, 24tasi (77,4%) yo'q, 3tasi (9,6%) javob bermagan.

3-savolga talabalarning 16tasi (51,6%) daraxt ekib, 9tasi (29%) ekoharakatda qatnashib, 6tasi (19,3%) bilmadim deb javob bergan.

4- savolga talabalarning 15tasi(48,3%) daraxtlar kesilishi, 8tasi (25,8%)orol haqida,1tasi (3,1%) daryolar haqida, 8tasi (25,8%) bilmadim degan javobni bergan.

5-savolga talabalarning 11tasi (35,4%) ma'lumotga egaman, 8tasi (25,8%) ozgina,12tasi (38,7%) esa hech qanday deb javob bergan.

Xulosa o'rnidida ta'kidlash joizki, XXI asr-ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon yetkazmasdan o'zgartirishi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishi va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir. Sayyoramizning har bir fuqarosi ekotizimning yaxshilanishiga munosib hissa qo'shish uchun ekologik qoidalarga qat'iy amal qilsagina, kelajak avlod uchun ulkan tabiiy nemat hadya etgan bo'lamiz.



**REFERENCES**

1. Sattorov Z.M. . Ekologiya. Darslik Toshkent, «Sano- standart» 2018.
2. Yormatova D.Yo., X.S.Xushvaqtova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Darslik «Fan va texnologiya»Toshkent, 2018.
3. Qayumov A.A., Yakubov O'.Sh., Raximov A.K. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. Toshkent, O'quv –qo'llanma. «Fan» 2011.
4. Белюченко И.С., Мелник О.А. Сельскохозяйственная экология. Учебное пособие. Сиб. федерал. ун-т Краснодар. 2010 г. 297 с.
5. Фардеева М.Б., Шафигуллина Н.Р. Экология растений и методы фитоиндикации (учебное пособие к теоретическому курсу и практическим занятиям) «Казанский федеральный университет» Казань.2018.
6. Askarova, M. R., & Saidova, D. B. (2022). Yangi o 'zbekistonda yangicha ta'limgiz tizimi va yangicha yondashuvlar. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 675-678.
7. Sharipboyeva, Y. M., & Askarova, M. R. (2022). Analysis of the root and root circumference nematode of silybum marianum (L) gaertn. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1236-1238.
8. Sharipbayeva, Y. M., Askarova, M. R. (2022). Analysis of soil nematodes of plantations grown in melilotus officinalis DESCR. *Educational Innovations and Applied Sciences*, 22(10), 18-20.
9. Tursunov, O. T. (2022). Qashqadaryo viloyatidagi kemiruvchilar -rodentia turkumining ayrim turlarini biotoplardagi soni va uning ekologik omillar bilan bog'liqligi. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(11), 212–216
10. Ahmadaliyeva, M. S. (2022). Text and interpretation in discourse analysis. *Trends in Education Foreign Languages and International Economics*, 1(1), 382-386.
11. Bahodirovna, M. I. (2022). The image of human and animals in the stories of normurad norkobilov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 243-245.
12. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-onas qaramogida bo'lgan etim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'limgiz va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
13. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'limgiz klasteri sharoitida erta inklyuziyaga erishish kozlear implantli bolalar ijtimoiylashuvining eng optimal omili. Yangi O'zbekistonda xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, 1(1), 55-65.
14. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. *Pedagogik ta'limgiz innovatsiyon klasteri*, 1(1), 350-352.
15. Muminov, D. G. (2019). Improvement of territorial organization of the use of nature. *International Journal of Research*, 7(15), 144-151.
16. Muminov, D. G. (2018). Biologiya ta'limgizda qiziqarli dars shakllaridan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari. Farg'onasi vodiysi tabiatini aholisi xo'jaligi, 1(1), 115-117.
17. Abdurakhmonov, E. B., Rakhmatkarieva, F. G., Ergashev, O. K., & Ochilov, G. M. (2020). Energetic Characteristics Of The Process Of Adsorption Of Benzene In

- Zeolites NaX And NaY. *International Journal of Future Generation Communication and Networking*, 13(4), 246-252.
18. ЮЛДАШЕВ, У. М., ТОЖИБОЕВ, Д. Р. У., ЙИГИТАЛИЕВА, М. А. К., ОЧИЛОВ, Г. М., & КУКАНБОЕВ, И. И. (2015). Инновационные технологии обучения, реализуемые в практике учителей химии. *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 50-55).
19. Abdinazarov, X. X., Madumarov, M. J., & Haydarov, S. M. (2019). Zooplankton of Sarikamish Lake (Uzbekistan). *Open Access Library Journal*, 6(3), 1-8.
20. Walli, M. H., Al-Jubouri, Z., Madumarov, M. M., Margaryta, M., & Aldibe, A. A. A. (2022). Genetic and environment diversity to improve wheat (*Triticum* spp.) productivity: A review. *Research on Crops*, 23(2), 295-306.
21. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus *Rhabdochona* in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, 45(4), 1084-1089.
22. Usmanova, K. A., Artikova, N. S., Xasanov, R. N., & Qarshiboeva, O. (2022). Oziq-ovqat sanoatida anjirni o'rni. *Science and Education*, 3(5), 188-190.
23. Yunusova, X. Sh. (2022). Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri rivojlanishiga ta'sir ko`rsatuvchi omillar. *Maktab va hayot*, 1(2), 32-33.
24. Тожибоева, Г. Р. Салихова, Р. (2022). Значение рефлексивной компетенции учителей начального образования. Перспективы развития образовательного инновационного кластера, 1(2), 302-304.
25. Тожибоева, Г. Р. (2022). Значение рефлексивной компетенции учителей начального образования. Перспективы развития образовательного инновационного кластера, 1(2), 304-307.
26. Tojiboeva, G. R. (2022). Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari. Таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари, 1(1), 186-191.
27. Tojiboyeva, G. R., & Elmuradova, G. M. (2022). Rahbar va xodimlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etish yo'llari. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 68-72.
28. Тожибоева, Г., Юнусова, М., & Салахова, Р. (2021). Use of didactic material in the process of learning writing. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 1(1).